



BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University

5/2024

E-ISSN 2181-1466





9 772181 146004

ISSN 2181-6875



9 772181 687004



5/2024

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI
SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА

Ilmiy-nazariy jurnal
2024, № 5, aprel

Jurnal 2003-yildan boshlab **filologiya** fanlari bo'yicha, 2015-yildan boshlab **fizika-matematika** fanlari bo'yicha, 2018-yildan boshlab **siyosiy** fanlar bo'yicha, **tarix** fanlari bo'yicha 2023 yil 29 avgustdan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2000-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2020-yil 24-avgust № 1103-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: 200117, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.

Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY'ATI:

Bosh muharrir: Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o'rinbosari: Rasulov To'liqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

Mas'ul kotib: Shirinova Mexrigiyo Shokirovna, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Kuzmichev Nikolay Dmitriyevich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (N.P. Ogaryov nomidagi Mordova milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya)

Danova M., filologiya fanlari doktori, professor (Bolgariya)

Margianti S.E., iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)

Minin V.V., kimyo fanlari doktori (Rossiya)

Tashqarayev R.A., texnika fanlari doktori (Qozog'iston)

Mo'minov M.E., fizika-matematika fanlari nomzodi (Malayziya)

Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor

Adizov Baxtiyor Rahmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Abuzalova Mexriniso Kadirovna, filologiya fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor, xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

Baqoyeva Muhabbat Qayumovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bo'riyev Sulaymon Bo'riyevich, biologiya fanlari doktori, professor

Jumayev Rustam G'aniyevich, siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

Djurayev Davron Raxmonovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Umarov Baqo Bafoyevich, kimyo fanlari doktori, professor

Murodov G'ayrat Nekovich, filologiya fanlari doktori, professor

O'rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Hayitov Shodmon Ahmadovich, tarix fanlari doktori, professor

To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor

Rasulov Baxtiyor Mamajonovich, tarix fanlari doktori, professor

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Quvvatova Dilrabo Habibovna, filologiya fanlari doktori, professor

Axmedova Shoira Nematovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bekova Nazora Jo'rayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Amonova Zilola Qodirovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Hamroyeva Shahlo Mirjonovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Nigmatova Lola Xamidovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Boboyev Feruz Sayfullayevich, tarix fanlari doktori

Jo'rayev Narzulla Qosimovich, siyosiy fanlar doktori, professor

Xolliyev Askar Ergashovich, biologiya fanlari doktori, professor

Artikova Hafiza To'ymurodovna, biologiya fanlari doktori, professor

Hayitov Shavkat Ahmadovich, filologiya fanlari doktori, professor

Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Ixtiyarova Gulnora Akmalovna, kimyo fanlari doktori, professor

Rasulov Zubaydullo Izomovich, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Mirzayev Shavkat Mustaqimovich, texnika fanlari doktori, professor

Samiyev Kamoliddin A'zamovich, texnika fanlari doktori, dotsent

Esanov Husniddin Qurbonovich, biologiya fanlari doktori, dotsent

Zaripov Gulmurot Toxirovich, texnika fanlari nomzodi, professor

Jumayev Jura, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

Klichev Oybek Abdurasulovich, tarix fanlari doktori, dotsent

G'aybulayeva Nafisa Izattullayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

FALSAFA VA HUQUQ, SIYOSATSHUNOSLIK *** PHILOSOPHY, LAW AND POLITICAL SCIENCES *** ФИЛОСОФИЯ, ПРАВО И ПОЛИТОЛОГИЯ		
Mansurova N.D.	O'zbekistonda gender tenglik siyosati	117
Bekdurdiyeva G.A.	Markaziy Osiyoda ekologik siyosatning konseptual asoslari	122
Eshbekov D.Sh.	O'zbekistonda parlament bikameralizmi davlat rivojining demokratik asosi sifatida	127
Murtazayev D.B.	O'zbekistonda zamonaviy adliya tizimining tarixiy rivojlanish tendensiyalari	132
Qolqanatov A.N., Samiyev B.N.	Moliyaviy munosabatlarda xalqaro kapital migratsiyasi	140
Абдирасулов М.Х.	Марказий Осиё давлатларида ёшларга оид давлат сиёсатини амалга оширишдаги муаммоларнинг таҳлили	144
Boymirzayeva M.Sh.	Radikalizmning mohiyati, asosiy shakllari va ilmiy talqinlari	150
TARIX *** HISTORY *** ИСТОРИЯ		
Xaitov Sh.A., Ahmadov A.A.	XX asr boshida Buxoro amirligidagi turk va afg'on fuqarolari, ular bilan mahalliy aholining munosabati xususida (O'zbekiston milliy arxivi ma'lumotlari asosida)	156
Boltayev B.B.	Buxoro elektr tarmoqlari tarixi muzeyi	160
Naimov I.N.	Buxoro amirligida jazo va ijro amaliyoti	164
Эргашев Ж.Ю.	Турк хоқонлиги ҳокимиятининг кўчманчи киданлар устида юритган сиёса	169
Шодиева Ш.С.	Бухоро амирлигида маъмурий-ҳуқуқий масалалар	176
Очиллов А.Т.	Бухоро воҳасида антропоген ландшафт ривожланишини ўрганишга доир олиб борилган археологик тадқиқотлар	180
Murodova D.Sh.	Buxoro muhandislik-texnologiya instituti tarixiga oid arxiv hujjatlari	186
Qurbonov O'R.	Amir Temur tashqi siyosatida xalqaro savdo aloqalari omili	191
Boltayev B.B.	Buxoro viloyati muzeylari faoliyatini takomillashtirishda zamonaviy yondashuvlar	195
Bafoyeva S.U.	Buxoro vohasidagi Romitan qo'rg'onining antik va ilk o'rta asrlar davri tarixi	199
IQTISOD *** ECONOMY *** ЭКОНОМИКА		
Meylikov F.A.	Hududlarni iqtisodiy rivojlantirish (Qashqadaryo viloyati misolida)	203
Isayeva G.	Western Azerbaijan: tourism opportunities of gagan region	207
PEDAGOGIKA *** PEDAGOGY *** ПЕДАГОГИКА		
Bozorova V.M.	The importance of modern innovative technologies and their role in improving the quality of independent learning	212
Maqsudova M.U.	Teaching speaking of english as a foreign language	218

BUXORO ELEKTR TARMOQLARI TARIXI MUZEYI

Boltayev Bobir Baxtiyorovich,

Buxoro davlat universiteti

Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasida katta o'qituvchisi t.f.f.d (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada Buxoro viloyati hududidagi dastlabki elektr tarmoqlari soha vakillarining fidokorona mehnati va mashaqqatli kasbi haqida ma'lumot berilgan bo'lib, shu bilan birgalikda Buxoro amirligi hududida saroy va ko'chalarni yoritish maqsadida foydalanilgan ilk dvijok, elektr stansiyasi binosi va uning takomillashib rivojlanib borish yo'nalishlari tahlil qilib o'tilgan. Bundan tashqari, hozirgi kunda bu tashkilot huzuridagi mavjud muzey faoliyati va uning tarixi bilan bog'liq masalalar ham keng qamrovli tarzda yoritib o'tilgan.

Kalit so'zlar: elektr, energiya, dvijok, stansiya, hisoblagich, tarmoq, kaska, uniforma, albom, transformator, muzey.

МУЗЕЙ ИСТОРИИ ЭЛЕКТРИЧЕСКИХ СЕТЕЙ БУХАРЫ

Аннотация. В данной статье приводятся сведения о самоотверженном и упорном труде представителей первых электросетей Бухарской области, а также о первом двигателе, использованном с целью освещения дворцов и улиц на территории Бухарского эмирата, строительство электростанции, ее благоустройство и развитие. Кроме того, всесторонне освещены вопросы, связанные с историей и деятельностью действующего музея при этой организации.

Ключевые слова: Электричество, энергия, движок, станция, счетчик, сеть, каска, униформа, альбом, трансформатор, музей.

MUSEUM OF THE HISTORY OF ELECTRIC NETWORKS OF BUKHARA

Abstract. In this article, information has provided on the selfless work and dedication of the representatives of the early electric power networks in the Bukhara region. It also discusses the first engine used for illuminating palaces and streets in the Emirate of Bukhara, the construction of the power station, and its subsequent enhancement and expansion. Furthermore, the article thoroughly covers matters concerning the history and operations of the museum associated with this organization.

Keywords: Electricity, energy, engine, station, meter, network, helmet, uniform, album, transformer, museum.

Kirish. Hozirgi kecha-kunduzdagi Buxoro viloyati va uning chekka hududlarini ham tun-u kun bir zayilda elektr quvvati bilan uzluksiz ta'minlab kelayotgan "Buxoro hududiy elektr tarmoqlari korxonasi" AJ tarixi ham uzoq o'tmishga borib taqaladi.

Buxoro elektr tarmoqlarining rivojlanish tarixiga bag'ishlangan ilk muzey 1993-yilda ko'rgazma shaklida faoliyat boshlagan edi. Ushbu muzey xonasi sig'imining kamligi sababli eksponatlarni namoyish qilishning imkoni mavjud bo'lmagan. Shuningdek, muzey faoliyatini takomillashtirish zamonaviy tarzda yangilash va qayta jihozlash masalasi kun tartibdagi asosiy vazifalardan biriga aylandi. Buxoro hududiy elektr tarmoqlari korxonasi aksiyadorlik jamiyati tashkil topganligining yuz yillik to'lishi munosabati bilan muzeyni qayta tashkil qilish vazifasi, shu tashkilotning Axborot texnologiyalari bo'limi boshlig'i lavozimida ancha yillardan beri ishlab kelayotgan Sharofov Raxmatullo Raximovich zimasi yuklatiladi. Tez fursatda muzey eksponatlarini o'z o'rniga joylashtirish maqsadida Buxoro davlat muzey - qo'rixonasi tarix ilmiy bo'limi boshlig'i O'.Ravshnov taklif qilinadi hamda hamkorlikda muzeyning ilmiy konsepsiyasi ishlab chiqiladi. Aynan ana shu konsepsiya asosida muzey jihozlanishi boshlab yuboriladi [1].

2023-yilning may oyida qaytadan tashkil etilgan yangi muzey bitta xonadan iborat bo'lib, umumiy maydoni 6x12=72 m². Muzeyga chap tomondagi eshikdan kirar ekansiz, dastlab devorda Buxoro hududida ilk faoliyat boshlagan dizel stansiyasi va uning tarixi yoritilgan. Ilk stansiya Buxoro amirining Shirbudun saroyida o'rnatilgan bo'lib, Buxoroning markazidan janubiy-sharqda, shahar tashqarisida joylashgan, saroyning qurilishi Amir Muzaffarxon (1860-1885), Amir Abdulahadxon (1885-1910) hukumronlik qilgan

HISTORY

yillarga borib taqaladi. Ushbu saroyda asosan amir va uning oila a'zolar yoz faslida istiqomat qilib, xorijlik elchilarni ham qabul qilishgan. 1893 yilda Gamburglik sanoatchi va siyosatchi Maks Albrext Markaziy Osiyo bo'ylab qilgan sayohat taassurotlaridan kelib chiqib, 1896-yilda o'zining "Russisch Centralasien.-Reisebilder aus Transkaspien Buchara und Turkestan" – "Rossiyaning Markaziy Osiyosi. Transkaspiy mintaqasi, Buxoro va Turkistondan sayohat rasmlari" nomli kitobini chop etirgan. Kitobning 152-155 betlarida muallif o'zi tashrif buyurgan Shirbudin saroyini ta'riflab saroy haqida o'ta qiziqarli ma'lumotlarni keltirib o'tadi. Jumladan: "Noyob juda go'zal gilamdan tashqari, rus chiroq sanoatining rang-barang turlarini ko'rib hayratlanganligini takidlab o'tadi. Maks Albrext Shirbudun saroyida o'z ko'zi bilan ko'rgan bino va saroy xonalarning fotosuratlarini olgan, ana shu suratlar orqali biz o'sha davr saroyi va binolarini ko'rishimiz mumkin. Xususan, 1907 va 1911- yillarda Buxoroda bo'lgan rus fotosuratchisi Sergey Mixaylovich Prokudin-Gorskiy (1863-1944) dastlabki xuddi ana shu mazmundagi rangli fotosuratlarini olishga muyassar bo'ladi. Jumladan, Amir Olimxon portreti, xalq ahvoli tushirilgan manzaralar, Shirbudun saroyining old qismi va orqa qismi, taxt saroyi, hamda bog'larning ko'rinishlarini suratga oladi. S.M. Prokudin-Gorskiyning 1907- yil Shirbudun saroyining yuqori martabali mehmonlarni qabul qilish xonasida olgan fotosuratda biz elektr orqali yoritiladigan xonani va qandilni ko'rishimiz mumkin. Saroydagi xonalar dizel generator orqali yoritilgan. Afsuski, ushbu generator bizgach saqlanmagan hamda u qancha quvvatga ega elektr ishlab chiqarganligi bizga noma'lumligicha qolmoqda, sababi bunday ma'lumotlar deyarli hech qayerda qayd qilib o'tilmagan [2].

Demak, ilk bora elektrlashtirish ishlari Buxoro amirligi hududida dastlab, Buxoro amirining Shirbudun saroyida foydalanilganligi haqida dalillarni Buxoro elektr tarmoqlaridagi mavjud muzey fondlaridagi yozma manbalar va arxiv fotosuratlar orqali bilib olish mumkin. 1911- yilga kelib Chor Rossiya hukumdori Nikolay II, Buxoro amirligi bilan munosabatlarni yaxshilash maqsadida amir Olimxonga elektr dvijogini hadya qilib yuboradi. Xuddi shu vaqtda amir farmoni bilan shahar chekkasidagi bahavo hududlardan birida – Sitorai Mohi Xossada yozgi saroy qad ko'tarayotgan edi. Binoni to'liq yoritish maqsadida amir Olimxon Nikolay II sovg' qilgan dvijokni yozgi saroy darvozasi yoniga o'rnatiradi. Uning umumiy quvvati 50 kvli bo'lgan elektr generator yordamida saroy zallari, xonalari, hovlisini yoritish 1913- yildan amlga oshiriladi. 1923- yilga qadar Buxoro shahri va uning atrofida yashovchi aholi xonadonlarini yoritishda doimo pilikdan "qorachiroq"lardan keng foydalanib kelishgan. Shahar ko'chalari kech kimgach zim-ziyo bo'lib, uylarni arang topish mumkin bo'lgan[3].

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar muzey devorida joylashgan stenddan o'rin olgan. Aynan shunga qo'shimcha qiladigan bo'lsak, Buxoroda birinchi elektr stansiyasining ishga tushirilishi, Buxoro shahrining to'liq elektirlashtirilish jarayonlari tasvirlangan fotolavhalar va eksponatlar qo'yilgan. 1921-yil Goerlo rejasi asosida sobiq sovet davlati hududlarini elektrlashtirish boshlab yuboriladi, oradan bir yil mudat o'tgach 1923-yilga kelib ark saroyining janubi-sharqida dizel elektr stansiyasi qurilishi boshlab yuborilib, Fayzulla Xo'jayev rahbarligida shahardagi mavjud ma'muriy binolar, ko'chalar, shifoxona va teatr binolari yoritish chiroqlari bilan ta'minlangan.

Keyinchalik shaharga ichimlik suvini olib kelish, kichik zavod va fabrikalarni elektrlashtirish maqsadida reja ishlab chiqilgan edi. Ana shu rejalarni amalga oshirish uchun 1923-yilda Buxoro xalqi uchun ilk bora Gruziyada ishlab chiqarilgan "Satsanbo" texnik qurilish tashkiloti ko'pchilikka xizmat qiladigan ilk elektr stansiyani qurib foydalanishga topshiradi. Elektr stansiyasi ikki (Shvetsariya) va (Rossiya, Xarkov) davlatlarida ishlab chiqarilgan dizel elektr stansiyasi bilan ishlagan. Shveysariyada ishlab chiqarilgan stansiya 150 ot kuchiga ega bo'lsa, Xarkovda ishlab chiqarilgan stansiya 120 ot kuchiga teng edi. Dastlab, Buxoro elektr stansiyasida o'n to'rt kishidan iborat jamoa faoliyat yuritgan bo'lib, stansiyani qurish va ishga tushirish jarayonlarini boshqarish uchun esa mutaxassislar Rossiyadan jalb qilingan. Stansiyaning birinchi boshlig'i G.S. Fidelman edi. Elektr stansiya Buxoro Xalq Sovet Respublikasining Savdo sanoat nozirligi tuzilmasi tarkibiga bo'ysundirilgan edi. Elektr stansiyasining ishga tushirilishi Buxoro Xalq Sovet Respublikasini iqtisodiy jihatdan rivojlanishi uchun muhim rol o'ynaganligini alohida takidlab o'tish zarur deb hisoblaymiz. Buxoro elektr tarmog'i sohasida ilk bora qo'llanilgan asbob anjomlar muzeyning chap tomonidagi devor oldiga o'rnatilgan vetrinaga qo'yilgan[4].

Birinchi dizel elektr stansiyasi kunduzlari shaharning markaziy ko'chalari bo'ylab, shifoxona, asosiy ma'muriy davlat korxonalar kabi tashkilotlarni yoritir, kechqurun Buxoroning o'n bir: "Samarqand", "Hazrati Imom", "Talipoch", "O'g'lon", "Shergiron", "Qorako'l", "Shayx-Jalol", "Namozgoh", "Qarshi", "Sallohxona", "Mozori Sharif" kabi darvozalariga boradigan yo'llarini yoritir edi [5]. Elektr stansiyasining quvvati pastligi inobatga olinib, chiroqlar faqat ma'lum vaqtlarda yoqilgan. Natijada 1924- yilga kelib stansiyaning eski dizellari quvvati 400 ot kuchiga ega bo'lgan yangi "MAN" rusumidagi ikkita yangi dizel generatori bilan almashtirilgach umumiy quvvat 800 ot kuchiga yetadi. Bu esa elektr energiyasi yordamida ko'proq hududlarni yoritish imkoniyatini berganligini takidlab o'tish joiz deb hisoblaymiz[6].

HISTORY

Buxoro shahar aholisini umumiy uzunligi 9,5 kilometrni tashkil qiluvchi quvirli toza ichimlik suvi bilan ta'minlash maqsadida 1927- yilda suv nasos stansiyasi qurilishi boshlanadi. Iste'mol quvvati 100 kv dan yuqori bo'lgan bu nasos stansiyasi uchun 6,6 kv li yuqori elektr uzatish tarmoqlari va ikkita transformator o'rnatiladi. 1934- yilga kelib sanoat korxonalarining, ko'chalarni yoritish tarmoqlarining ko'payishi kommunal xo'jalik va savdo-sotiq binolari, kasalxonalarining elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun elektr simlarining umumiy uzunligi 16 kmga etadi. Bu muammolarni hal qilish uchun o'sha davrdagi O'zbekiston Respublikasi hukumatining rahbari Fayzulla Xo'jayev Moskvadagi ittifoq hukumati rahbarlari bilan kelishib, Buxoro shahrida umumiy quvvati 11550 kVt bo'lgan Markaziy elektr stansiyasini loyihalash va qurilishini ittifoq davlat rejasiga kiritishga muvaffaq bo'ladi. Elektr stansiyasi 1930-yillar boshida qurila boshlandi va katta qiyinchiliklar evaziga bo'lsada qurib bitkaziladi [7]. Mazkur qurilish ishlari iste'dodli tashkilotchi va tadbirkor inson I.S.Pilshikov boshchiligida olib borildi. Qurilish va bunyodkorlik ishlari 1936- yilning may oyi oxirigacha cho'zilib ketadi. 1936- yilda Buxoro Markaziy elektr stansiyasining dastlabki dizeli liniyasi ishga tushirildi. Buxoro viloyati tumanlarining markazlarida 1935-1940-yillar davomida bir qancha dizel elektr stansiyalari ishga tushirilib, tuman markazlaridagi kasalxonalar, bosmaxona, aloqa, ma'muriyat binolari, ko'chalar va uylarning bir qismi elektrlashtirildi [8].

Yuqoridagi keltirib o'tilgan fikrlar ekspozitsiyaga qo'yilgan uchinchi banerda o'z ifodasini topgan. Undan keyingi o'rtadagi vitrinada ham ikkinchi jahon urushi yillariga bag'ishlangan bo'lib, jangohlarda g'alaba uchun o'z jonini fido qilib frontda mardlarcha ishtirok etgan buxorolik qahramonlar qatorida elektr tarmoqlari soha vakillaridan hozirda Buxoro shahri Shofirkon ko'chasida istiqomat qilib kelayotgan to'qson yoshdan oshgan Qarshiyev Norboy otaning suratlari ham osib qo'yilgan[9]. 1962-yilga kelib O'zbekistonda energetika va elektirlashtirish vazirligining tashkil etilishi hamda 1963-yilning 14-martiga kelib, Navoiy issiqlik elektr stansiyasining dastlabki 25 ming kvtli blokining ishga tushurilishi, 110 kV kuchlanishli elektr energiyasining Buxoro viloyati markaziga yetkazila boshlanishi kabi jarayonlar tasvirlangan lavhalar markazda o'rnatilgan stenddan joy olganligini ta'kidlab o'tish lozim[10]. 1973-1997-yillarga kelib Buxoro viloyati hududida yangi korxonalar salmog'ining ortishi munosabati bilan 220 kV li "Turon" taqsimlash punktining Qashqadaryo va Buxoro viloyatlari uchun qurib bitkazilishi juda katta ahamiyat kasb etadi. Yangi tashkil etilgan korxonalar uchun yetarli darajada elektr toki yetkazish imkoniyati yaratildi. 2003-yilga kelib butun viloyat elektr energetikasi barcha kuchlanish tarmoqlari 11610 km, transformator punktlari 3846 taga podstansiyalar 85 taga yetgan bo'lsa, 2023- yilga kelib, tarmoqlar 17709 km, transformator punktlari 5909 taga, podstansiyalar soni 95 taga yetganligini, ularning dinamik o'sish suratlari, diagramma va jadvallarni muzeydagi "Kecha va bugun" deb nomlangan ko'rgazmadan bilib olish mumkin. 2009-2016-yillar mobaynida ishlatilgan elektr toki sarfini hisoblash maqsadida zamonaviy yangi hisoblash vositasi "KAIFA" va "ASKUE" (2019-yil) dan boshlab, tizimining joriy qilinishi, hisoblagichlarning yangi turkumining o'rnatilishini boshlab berdi. Bu tizim qarzdorlikni oldini olish imkoniyatini qisqartirib berdi desak aslo adashmaymiz. Chunki bugun buni hayotning o'zi isbotlab turibdi. Xuddi ana shu eski va yangi rusumdagi elektr hisoblagichlar ham vitrinadan kerakli o'rinni egallab ulgurganligi bizning fikrimizni yana bir karra isbotlaydi [11].

Xonaning burchagida shishali vitrinada esa 2017-yildan beri elektr tarmoqlari soha vakillari ishlatib kelayotgan uniforma manikenda namoyishga qo'yilgan. Biz o'z tadqiqotimiz davomida bu soha vakillarining dastlabki kasb kiyimini aniqlashga harakat qilib ko'rdik, lekin shu narsaga guvoh bo'ldik-ki, bu kasb egalari deyarli hech bir boshqa kasb vakillaridan ajralib turadigan holda maxsus kiyim kiyishmaganligi aniq bo'ldi. Faqatgina U. Mustafayevning Respublika elektr tarmoqlari boshqaruvi kengashiga rais bo'lganidan so'ng, oddiy va rahbar xodimlari uchun kiyadigan to'q sariq va jigar rangdan iborat uniformada yurish joriy qilindi. Oddiy xodim bosh kiyimi (kaska)si turli ranglarda bo'lsada, formasi sariq va jigar rangdan iborat bo'lgan. Ammo rahbar xodimlarning bosh kiyimi (kaska)si oq rangda kiyimi esa to'q sariq rangdan iborat qilib belgilangan[12].

Muzey xonasiga kirish yo'nalishda qarama – qarshi yuqori tomondagi vitrinalar ichida elektr tarmoqlari soha vakillarining faoliyati bilan bog'liq maqtov va faxriy yorliqlar, diplom hamda turli xil sertifikatlar namoyishga qo'yilgan. Elektr tarmoqlari sohasi tarixi va taraqqiyoti bilan bog'liq monografiyalar, ilmiy qo'llanmalar, risola va to'plamlar ham shu vitrinadan joy olgan[13]. Muzey xonasining o'ng qismida joylashgan vitrinalarda Buxoro hududiy elektr tarmoqlari korxonasining o'n birta direktor va o'nta bosh muhandis lavozimida ishlagan shaxslarning hamda ikki nafar soha faxriylarining suratlari taqdim qilingan. Bundan tashqari, Buxoro hududiy elektr tarmoqlari korxonasining tashkil topganligining 70 - yilligi va 100 - yilligi tantanalari nishonlangan davrda sovg'a tariqasida topshirilgan o'ndan ortiq chinni va sopol ko'za, idish tovoq, va fotolavhalarini ekspozitsiyada ko'rish mumkin. Muzeyda ikki dona fotoalbom mavjud bo'lib, uning birinchi soni ushbu tashkilotning 70 yilligi va ikkinchi soni esa 100 yilligiga bag'ishlangan. Elektr tarmoqlari

HISTORY

korxonasi va soha vakillari faoliyatiga oid asl arxiv hujjatlari ham shishalik vitrinadan joy olgan[14]. Uning yuqorisida televizor oʻrnatilgan boʻlib, sohaga oid turli videoroliklarni tashrif buyuruvchilarga taqdim qilish imkoniyati ham mavjud. Shunday filmlardan biri 2020-yil 27-aprelda Buxoro viloyatiga yopirilgan texnogen ofat kuchli shamol natijasida 1816 ta transformatorlarning ishdan chiqishi, 8000 kilometrdan ortiq uzunlikdagi elektr uzatish liniyalarining yaroqsiz holga kelib qolishi oqibatida etkazilgan talofotlarni bartaraf etish maqsadida soha vakillarining fidokorona va mashaqqatli mehnatiga bagʻishlangan boʻlib, ularning soni oʻntani tashkil etadi[15].

Xulosa qilib aytganda Buxoro viloyati energetikasini boshqarish, taʼmirlash, isteʼmolchilarni elektr energiyasi bilan uzluksiz taʼminlash, nazorat qilish, hisob-kitob ishlarini olib borish, yangi mutaxassis xodimlarni tayyorlash Buxoro markaziy elektr stansiyasi xodimlari zimmasiga yuklangan boʻlib, bu korxonada Respublika kommunal xoʻjaligi vazirligidagi “Oʻzkomunenergo” birlashmasi tizimida edi. 2023-yilga kelib Buxoro shahridagi birinchi elektr stansiyasining faoliyat boshlaganligiga 100 yil toʻlishi munosabati bilan ushbu muzey ekspozitsiyasi yanada boyidi va yangilandi.

ADABIYOTLAR:

1. *Buxoro hududiy elektr tarmoqlari korxonasi AJ huzuridagi muzey ilmiy konsepsiyasi. Axborot texnologiyalar boʻlimi boshligʻi R.R.Sharofov – Buxoro 2023.- B. 3.*
2. *Бухоро электр тармоқлари корхонаси 100 ёшда: китоб- альбом / нашрга тайёрловчи: Исмоилова М. – Бухоро: “Бухоро”, нашриёти, 2023. – Б. 9-10.*
3. <https://buxelektr.uz/2023/04/20/shirbuddin-saroyi>.
4. *Сўнмас чироқ / Бухоро электр тармоқлари 70- йиллик тарихига доир. – Бухоро: “Бухоро” нашриёти, 1993. – Б. 8.*
5. <https://buxelektr.uz/2023/04/20/buxoro-shahridagi-birinchi-elekt-stansiya>.
6. *Исмаи Қудратов. Бухоро вилояти энергетика тарихи. -Бухоро,2003.-Б 2016.-Б 7-9.*
7. <https://buxelektr.uz/2023/04/20/buxoro-shahrida-1923-1936-yillarda-elekt-tarmogining-rivojlanishi>.
8. *Непорожний П. С. Иттифоқ Республикаларида электр -энергетиканинг ривожланиши / 1927-1970 йиллар. - Москва: “Энергия”, 1972. - С. 38.*
9. <https://buxelektr.uz/category/tarix>.
10. *Непорожний П. С. Иттифоқ Республикаларида электр- энергетиканинг ривожланиши / 1920-1980 йиллар”. - Москва: “Энергоатомиздат”, 1982. - С.24.*
11. *Ekspozatsiya (Elektr hisoblagich 2019-yilda ishlab chiqarilgan).Toshkent.- № Inv-27.m.*
12. *Dala tadqiqoti Sharofov Rahmatullo Raximovich bilan shaxsiy muloqot.2023 y.iyun.13.*
13. *Қудратов И.Р..”Нурли йўл”. Бухоро: “Бухоро энерго марказ”, ОТХЖ. 1998-б.52.*
14. *Bobir Boltayev, Новый этап развития музеев и музейного дела в Узбекистан, Центр научных публикаций (buxdu.uz) 5 (5).*
15. *Boltayev B. Madaniy meros obyektlarini muhofaza olishda qonun hujjatlarining ahamiyati //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 6. – №. 6.*